

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**ILMIY AXBOROTLARI**  
ILMIY-NAZARIY JURNALI


**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

**2020**  
**2-son**

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan  
2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

[tdpujournal@mail.ru](mailto:tdpujournal@mail.ru)



tafovutlar muhim rol o'ynagan. Masalan: *al muso – almisoq, al vido – alvido, al batta – albatta, al hamdu al allah – alhamdulillah, ba al salom – vassalom, alay hu al allah – alayhissalom, amir al bahr – admiral kabi*<sup>1</sup> so'zlar tarkibidagi al artiklining hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasida mavjud emasligi va ularda ro'y bergan tovush o'zgarishlari soddalashishiga olib kelgan. So'z tarkibida sodir bo'lgan bu kabi o'zgarishlar tildagi grammatik qoidalarining o'zgarishiga olib kelgan. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil so'z turkumlaridan son va olmosh turkumlari yasash xususiyatiga ega emas, faqatgina, yasash uchun asos vazifasini bajarishi mumkin. Qadimgi turkiy tilda esa son turkumiga oid leksik birliklar doirasida ham morfemalarga ajraladigan yasama so'zlar uchraydi. Masalan: *ikki* soni tarkibida "*ket, yon*" ma'nosini anglatuvchi *ik* so'zi va son yasovchi [ -i ] qo'shimchasining mavjudligi; *yetti* soni tarkibida "*ma'lum manzilga borib ol*" ma'nosini anglatgan *yet* so'zi va son yasovchi [ -i ] qo'shimchasining borligi soddalanish hodisasi ta'sirida grammatik qoidalarda bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalar, asosan, mustaqil so'z turkumlariga mansub birliklar tarkibida mavjud bo'ladi. Ammo, qadimgi turkiy tilda shakl hosil qiluvchi morfemalar mustaqil so'z turkumlariga qo'shilib, yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar, shuningdek, modal so'zlarning ham turli shakllarini hosil qilishga xizmat qilgan. Masalan: *kabi* ko'makchisi "*o'xshash*" ma'nosini anglatgan *kib* otiga [ -i ] egalik qo'shimchasining qo'shilishi bilan hosil qilinganligi soddalanishning yordamchi so'z turkumlarga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy tilga mansub shakl hosil qiluvchi qo'shimchalarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular bir turkum doirasida so'zning turli shakllarini hosil qilish bilan birga, boshqa so'z turkumiga transpozitsiya-konversiya yo'li bilan o'tib, umumkategorial ma'nosini o'zgartiradi. Masalan: *ellik, nima, biz, siz, sen* kabilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili shakllangan davrga qadar bir qancha o'zgarishlarga uchragan bo'lib, bu kabi o'zgarishlarning o'zbek tili leksikasi, shuningdek, leksik tarkibida ro'y berishi tilshunoslikda soddalanish hodisasi yuzaga kelishining asosiy omili bo'lgan. Soddalanish hodisasi o'zbek tili leksikasining ma'no taraqqiyotini, tarkibini, so'z tarkibida morfemalar munosabatining diaxron va sinxron holatini aks ettiradi.

## LINGVOEKOLOGIYA: TIL VA NUTQ SOFLIGINING NAZARIY MASALALARI

Qo'ldashev N.A – Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda lingvoekologiya o'zbek tilshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligi, unda lingvistik xilma-xillikni huquqiy himoya qilish, til hosilalarining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish, ona tili va umuman, tilni jamiyatdagi nufuzini ko'tarish bo'yicha aniq chora-tadbirlar haqida fikr-mulohaza yuritiladi. Muallif tildagi barcha etnik, dialekt va boshqalar jarayonlarni saqlab qolishga qaratilgan til siyosati haqida atroflicha to'xtaladi.

**Kalit so'zlar:** lingvoekologiya, substandart, slengga, degradatsiya, rehabilitatsiya, destruktiv, kanonik, retsipient, adekvat argumentatsiya, sinergiya, inektiv, translingvial, agnonim, obstszenizm.

## ЛИНГВОЭКОЛОГИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ЧИСТОТЫ ЯЗЫКА И РЕЧИ

Кулдашев Н.А. – докторант Ферганского государственного университета

<sup>1</sup> Раҳматуллоев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III жилд. –Toshkent, Университет. 2000. -Б. 84.



**Аннотация.** В данной статье приводятся суждения том, что лингвоэкология сегодня является одним из актуальных направлений узбекского языкознания, о конкретных мерах правовой защиты языкового разнообразия, расширении социальных функций языковых производных, о конкретных мерах по повышению престижа родного языка, и в целом языка, в обществе. Автор подробно раскрыл языковую политику, направленную на сохранение всех этнических, диалектных и других процессов в языке.

**Ключевые слова:** Лингвистика, субстандарт, сленг, деградация, реабилитация, деструктивный, канонический, реципиент, адекватная аргументация, синергия, инъективный, транслингвиальный, агноним, обценнизм.

### **LINGUOECOLOGY: THEORETICAL QUESTIONS OF LANGUAGE AND SPEECH PURITY**

**Quldashev N.A. – post-doctoral student of the Fergana state university**


**Annotation.** In this article, we will talk about the fact that Linguoecology today is one of the most relevant areas of Uzbek linguistics , about specific measures of legal protection of linguistic diversity, expanding the social functions of language formations, increasing the prestige of the native language and society as a whole. The author will elaborate on the language policy aimed at preserving all ethnic, dialect and other processes in the language.

**Key words:** Linguistics, substandard, slang, degradation, rehabilitation, destructive, canonical, recipient, adequate argument, synergetics, invective, translingual, agnonym, obscenism.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. 2020-yil 9-mart kuni Bosh vazir A.Aripov raisligida o'tkazilgan yig'ilishda ko'cha va aholi punktlarini nomlash, peshlavhalar, reklama hamda e'lonlarning davlat tilida berilishi singari masalalar kun tartibiga qo'yildi. Ko'tarilayotgan muammoning dolzarbligi – ona tilining, davlat tilining nufuzi va kelajagi haqida gap boradi. Bugungi kunda xalqimiz tushuna olmaydigan o'zlashma so'zlar haddan ziyod ko'p ishlatilayotganligini ta'kidlash mumkin. Bu esa insonlarga ancha murakkabliklarni yaratmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu masalalarni o'rganadigan yo'nalish sifatida lingvoekologiya fanini ko'rsatish mumkin. Lingvoekologiya ekolingvistika fanining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan. Tildagi barcha (etnik, dialekt va boshqalar) jarayonlarni saqlab qolishga qaratilgan til siyosati. Lingvoekologiya, odatda, lingvistik xilma-xillikni huquqiy himoya qilish, til hosilalarining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish, ona tili va umuman, tilni jamiyatdagi nufuzini ko'tarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Aynan til muhiti shaxsni shakllantirgani bois lingvoekologiyani ta'lim-tarbiya muammolaridan ajratish mumkin emas. Tilshunos L.Buxareva "Jamiyat a'zolarining lingvoekologik xulqiga, buzilish (degradatsion) xulqi bir-biriga zid tushuncha sifatida qaraladi"<sup>1</sup> – deya bejizga ta'kidlamagan. Tilshunoslik fanida ham ekologiya tushunchasini ifodalashda o'tkinchi, muddatli talab-ehtiyojlarni davomli talab-ehtiyojlarga qarshi qo'yish orqali dolzarbligi ortadi. Mutaxassislar bu kabi qarama-qarshilik usulidan muammo mohiyatini ochish uchun foydalanishmoqda. Mazkur jarayon uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan umumiy va xususiy manfaatlar uchun xizmat qiladi. Bu tilning etika, imlo, so'z qo'llash me'yorlarini buzib foydalaniladigan reklama matnlarida kuzatiladi.

Lingvoekologiya (til ekologiyasi) g'oyalari muammoni tom ma'noda tushunishga undaydi. Bu tamoyilning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ham tilshunoslikka xos bo'lmagan (substandartga), ham slengga xolisona, tabiiy munosabatda bo'lishdir. *SLENG* inglizcha "slang" so'zidan olingan bo'lib,

<sup>1</sup> . Бухарева Л.П. Лингвоэкологические факторы процессов оптимизации языкового поведения: на материале Республики Марий Эл: автореф.дис....канд.социол.наук. – наук. – М.,2009.



“jargon” degan ma’noni bildiradi. Tilshunos olim I.R.Galperin “slengni alohida guruh sifatida jargon va argodan ajratib, jargon so’zlar va argotizmlarni alohida terminlar bilan jargon yoki cant deb ataydi”<sup>1</sup>. Jargon va slengning farqli va o’xshash jihatlari shundaki, jargon yashirin ma’no bilan birga tinglovchini yoki o’zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo’rttirib baholash xususiyati ega. Sleng hammavaqt nutq obyekti bo’lgan predmetga bo’lgan nopisandlik va ironiyani ifodalashni ko’rsatadi. Sleng ko’proq yoshlar nutqida qo’llanadi. Masalan talabalar orasida *dum* – topshirilmagan imtihon, *step* – talabalar stipendiyasi kabi. Rus tilshunosligida so’zlashuv nutqida biroz qo’pol va hazil bo’yog’iga ega bo’lgan, adabiy nutqqa qabul qilinmagan so’z va iboralarni ham “sleng” termini bilan yuritiladi. Bu jarayon o’z navbatida tilni boyitish bilan birga sofligiga ham ziyon yetkazadi.

Lingvoekologiya orqali bunday xarakterli fikrni ilgari surish insonlar orasidagi muloqot muhitining sofligini saqlash lozimligi nazarda tutiladi. Umuman aytganda, “ekologik yondashuvning o’ziga xos xususiyati til rivojlanishining muayyan davrida barcha til jarayonlarini me’yorga solishning asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu esa ijobiylik, beparvolik, qadriyatlar, qadriyatlarga qarshilik bilan bog’liq...<sup>2</sup>. Lingvoekologik yondashuv tamoyillariga amal qilish, birinchi navbatda, adabiy tilni asrab-avaylash, “madaniyatning bu quroliga” ehtiyotkor munosabatda bo’lish, so’zlashuv tili va sleng ko’rinishidagi buzilishlardan asrashni ilgari suradi. Sof nutq – bu adabiy tilga yot til elementlari bo’lmagan nutqdir. “Nutq sofligi, birinchidan, adabiy birliklarning, ikkinchidan esa adabiy bo’lmagan til elementlarini stilistik jihatdan o’rinli ishlatilishini nazarda tutadi...”<sup>3</sup>.

Lingvoekologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri buzilish (degradatsiya) va tiklanish (reabilitatsiya)dir. Bu kategoriya til buzilishining xavfli alomatlarini tadqiq etish, ularga qarshilik ko’rsatish, tilni sof saqlanib qolish uchun shart-sharoit yaratish, barqaror rivojlanishiga ko’maklashish va tilning jozibadorligini saqlashni taklif etadi. Barqaror rivojlanish deganda hozirgi kun talab-ehtiyojlarini qondiradigan va kelgusi avlodlarning talab-ehtiyojlarini qondirilishiga xavf tug’dirmaydigan rivojlanish tushuniladi. Lingvoekologik tadqiqotlarning yana-da istiqbolli yo’nalishlaridan biri sifatida lingvistik rang-baranglikni (sabablar, oqibatlar, funksiyalar va shakllar) e’tirof etish mumkin. Biologik va lingvistik sohalardagi xilma-xillik o’rtasida o’xshash jihatlar mavjud. Bu yo’qolib ketayotgan kichik tillarni saqlab qolish, til strukturasi ekologik va noekologik elementlarini qidirish, ona tili imkoniyatlarini kengaytirish kabilar bilan izohlanadi. Tilda termini noo’rin qo’llash nutqning qashshoqlanishiga olib keladi. Bugungi kunda til muvozanatining buzilishiga qarshi chiqish (invektivatsiya-og’zaki tajovuz) holati hamda xorijiy tillardan o’zlashmalar bilan bog’liq muammolar tobora keng quloq yozmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, o’zlashmalar an’anaviy ravishda tilning “ofat”laridan biri hisoblanib, ular qatoriga “qarshi chiqish” va jargon so’zlar kiradi. N.B.Lebedevaning fikriga ko’ra, “tilni tashqi halokatli (destruktiv) ta’sirlardan, adabiy me’yorni qo’pol, g’aliz va xorijiy til leksikasi zo’ravonligidan himoya qilish, shaxsning lingvistik erkinligi va tildan erkin foydalanish huquqi uchun sharoit yaratish”<sup>4</sup> kabi masalalar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Me’yor asosida shakllangan nutqning barcha sifatlarini ta’minlaydigan til vositalarigina ekologikdir. Nutqning me’yoriy (kanonik) sifatleri antik davr notiqlik san’ati belgilari bilan o’lchanadi. Bu, albatta, soflik, go’zallik, tozalik va o’rnida ishlatilganlik – jo’yali fikr hisoblanadi. Soflik – Arastu davridan buyon yozma yodgorliklarda o’z aksini topgan. Soflik deganda, odatda, nutq mazmunini oluvchi (retsipient) tomonidan idrok etishga imkon beradigan jihat nazarda tutiladi. Aynan soflik nutqning tez va oson tushunilishini ta’minlaydi. Mohiyatan bu nutqning muhim, eng

<sup>1</sup> . Гальперин И.Р. О термине «сленг» «вопросы языкознания» 1956. №6. стр 114.

<sup>2</sup> . Фомина А.О. Концептуально-терминологическое пространство лингвистической экологии: когнитивный и функционально-семантический аспекты (на материале русского языка): дис.... Канд. филол. наук. – Краснодар, 2011.

<sup>3</sup> Фомина А.О. Концептуально-терминологическое пространство лингвистической экологии: когнитивный и функционально-семантический аспекты (на материале русского языка): дис.... Канд. филол. наук. – Краснодар, 2011.

<sup>4</sup> Лебедева Н.Б. [http://pusic.ucoz.ru/publ/4-1-0-19]

asosiy sifati bo'lib, agar u yo'q bo'lsa, nutqning barcha boshqa sifatlari o'z ma'nosini yo'qotadi. Soflik – nutqning idrok imkoniyatlari bilan o'zaro munosabati asosida yuzaga chiqadigan xarakter belgisidir. Soflik, eng avvalo, ko'pchilik tushunadigan so'zlarni aniq ma'noda ishlatish, shuningdek, yetarli asos (adekvat argumentatsiya) va nutqiy strategiyadan foydalanish orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda oddiy aholi tushunishi qiyin bo'lgan o'zlashma so'zlar haddan ziyod ko'p ishlatilayotganligini ta'kidlash mumkin. Bunday til muhitida oddiy odamlar o'zlarini noqulay his qilib, ko'p narsalarni tushunmaydi. Odamlarda “menga yolg'on gapiryapti, shekilli”, degan noxush tuyg'u vujudga keladi. Qandaydir xizmatdan foydalanayotganda tushunmovchiliklar paydo bo'ladi. Masalan, bank kredit shartnomasini o'rganayotganda, xizmat ko'rsatayotgan xodimlar bilan suhbatda xuddi chet tilidan foydalanayotgandek ko'rinadi. Ommaviy axborot vositalari orqali efirga uzatilayotgan ish beruvchilarning e'lonlarida oddiy o'quvchi hech qachon eshitmagan kasb-hunarning xorijiy tildan o'zlashgan nomlari keltiriladi. Masalan, *auditor, shoumen, git, repititor, rieltor, merchendayzer, distribyuter, promouter, supervayzer*. Qiyos uchun oddiy sport muxlisining his-tuyg'ularini keltiramiz: sport sharhlovchilari nutqini xorijiy so'zlar lug'atisiz tushunish mumkin bo'lmay qoldi. Nuqul *pley-off, overtaym, git* (velosport), *batterflay* (suzish), *nok* (boks) so'zlari kuzatilmogda. Futbol ishqibozlari g'arbdagi muxlislarga taqlid qilib, *ole-ole, vau-vau, sudya-sudya...* deb, quloqni teshadigan qilib ovoz chiqarishadi. G.G.Molchanova “...til hamkorligi (sinergiyasi) tip hosil qiluvchi mezon va madaniy jihat uchun ahamiyatli belgi hisoblanadi. Mavqe va obro'ni oshirish uchun leksika xalqarolashtirish hisoblanadi”<sup>1</sup>. Boshqa tillarga oid so'zlardan foydalanish bugun reklama sohasi uchun ham xarakterli xususiyatga aylandi. *Hydrolife suvi, Nestle suti, «M&M's» shokoladi, Nescafe, Coca-Cola va b.q*

Ma'lumki, reklama “virtual” voqelikda o'z modelini yaratadi. Bozor iqtisodi davrida reklama matnlarida ommaviy madaniyat belgilari o'z izini qoldirmogda. Reklama dunyo xalqlari ma'naviyatini shakllantirishda “harakatlantiruvchi kuch roli”ga da'vo qilmogda va “dadil harakatlar”ga undamogda. Shu tariqa u direktiv (boshqaruv) va qadriy-yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Inson qadriyatleri istalgan onda muayyan harakat va munosabatlar ko'rinishida namoyon bo'lishga qodir. Shuning uchun ham bu sohada ingliz va rus so'zlarining ortiqcha va besabab ishlatilish jarayoni ekologik lingvistika obyekti bo'lib qoladi. Xorijiy so'zlar peshtaxtalarda ko'p ishlatilmogda. Natijada yurtimiz ko'chalari milliy tusini yo'qotib bormogda. “Ongimizni qandaydir ma'naviy, lisoniy zabt etish – o'ziga xos g'arbchasiga sodir bo'lmogda”<sup>2</sup>.

Tilshunos A.V.Moiseenko<sup>3</sup> dunyoda ekologik lingvistika shakllanishining to'rtta shartini ko'rsatadi:

1) ona tilida so'zlashuvchilar nutqiy kompetensiyasining pastligi; 2) jargon, argotik va og'zaki tajovuz (**invektiv**) leksikaning dolzarblashuvi; 3) asoslanmagan (besabab) hollarda katta miqdordagi shtamp va klishening ishlatilishi; 4) ko'p sonli kodli qayta yo'naltirishlar.

Qayta yo'naltirishlar, bir tomondan, madaniyatning yangi hodisalariga ochiqligi, moslashuvchanligi, moyilligi alomati bo'lib, bu tilning zaifligi yoki salbiy xususiyati hisoblanmaydi. Boshqa tomondan esa inglizcha so'zlardan foydalanish, «begona» sintaksisni va so'zlar tartibini ishlatish ko'p holatlarda asossizdir.

Lingvoekologiyaning – til orqali uzatish (**translingvial**) aspekti alohida ajralib turadi. Uning tayanch nuqtalardan turib, til birlikleri, madaniyat voqeiklari, o'zga madaniyatga mansub boshqa til vositalari yordamida qo'llash kabilarni ko'rib chiqadi. Til orqali tarqatish ekologiyasida o'zlashmalarga *sinchikov* e'tibor beriladi. Ya'ni til qabul qiluvchi (**retseptor**)ning ifloslanishi, til

<sup>1</sup> Брусенская Л.А., Куликова Э.Г. Экологическая лингвистика: Монография. – М.: Флинта: Наука, 2018.

<sup>2</sup> Самсонов Н.Г. Глобализация и русский язык, культура // Труды государственного университета путей сообщения. 2008. — № 1 (5). — Ростов н/Д.: РГУПС. — С. 90—95.

<sup>3</sup> Брусенская Л.А., Куликова Э.Г. Экологическая лингвистика: Монография. – М.: Флинта: Наука, 2018.

beruvchi (donor)ning buzilishi kabi munosabatlarni tadqiq etadi. Tilshunoslikda lingvoekologiya yo'nalishining vujudga kelishi til strukturasi va uning areal joylashuviga bog'liq. Lingvoekologiyaning boshqa fanlardan ajralishi ijtimoiy lingvistika va lingvokulturologik muammolar bilan shug'ullanuvchi ushbu muammolarni yechishga qaratilgan fan sifatida shakllanganligini ko'rsatmoqda. Lingvoekologiya "tasarrufi"ga, ko'pincha, zarurat xarakterida bo'lmagan o'zlashmalar tushib qoladi. Bu esa ona tiliga yana-da e'tiborli bo'lish kerakligini uqtiradi. Hozirgi davrda globallashtirish jarayonida tillarning jahon miqyosida yoyilishga intilishi zamonaviy nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun o'zbek nutqining rus, inglizcha so'zlarga "ko'milib ketgan"ligiga, ortiqcha termdan foydalanishga bag'ishlangan maqolalar sarlavhalarini qiyoslashimiz mumkin: N.Mahmudov "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab"<sup>1</sup>, Z.Muqimov "O'zbek tilida gaplashamizmi?"<sup>2</sup>, E.Vohidov "So'z zabarjad – so'z oltin"<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, oxirgi o'n yillikda o'zlashma so'zlar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Begona madaniyat xususiyatlarini aks ettiradigan ushbu so'z va iboralarning ko'pchiligi rus, ingliz va nemis xalqlariga mansubdir. Bundan chiqadiki, tilni sof holda saqlash muammosi o'z dolzarbligini hech ham yo'qotgani yo'q. Chet tiliga oid so'zlarning o'zbek tiliga ta'siri esa hamon salbiy baholanib kelinmoqda. Ekologik tafakkur negizida tizimdagi o'zaro aloqalar va o'zaro bog'liqliklarni tushunish yotadi. Ilmiy tilda «tizim» - muayyan tarzda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir qancha qism, ko'plab qandaydir elementlardan tashkil topgan bir butun, yaxlit narsa hisoblanadi. Ekologiyada ham ko'plab tizimlar mavjud. Darhaqiqat, ekologik tizimlar (ekotizim) tirik mavjudotlar olamining tashqi va ichki dunyo bilan o'zaro munosabatlari orqali namoyon bo'ladigan istiqomat muhitidir. Tilning rang-barangligi va insonning ekotizim bilan aloqalarini tadqiq qilish jarayonida, tilga ekotizim sifatida qaraladi. Ekotizim esa tabiat, odamlar jamoasi va alohida individning bir-biri bilan o'zaro munosabatini o'z ichiga oladi. Unda muayyan til faktlari shakllanib, rivojlanishi mumkin. Ishlab chiqarish bilan bog'liq yangiliklarning deyarli ingliz va xitoy tilida ifodalanishi ushbu tillarning ustuvorligi sanaladi. Ushbu omillar boshqa til vakillarining o'z ona tilida so'zlashishi, uning yana-da rivojlanish darajasini kuzatish imkonidan mahrum bo'layotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ularda ingliz tiliga salbiy munosabat vujudga kelmoqda. Demakki, ular ingliz tilini o'ziga xos madaniyatga, ona tiliga zulm o'tkazuvchi va uni qo'llanishini cheklaydigan til sifatida qabul qiladilar. Ijtimoiy va biologik jihatdan xavfli deb belgilanuvchi salbiy nutqiy vaziyatlar "lingvoekologik buzilishlar"ni shakllantiradi. Ular ko'p holatlarda xorijiy tillardagi materiallardan asossiz foydalanishni nazarda tutadi. Bugungi kunda yozma va og'zaki nutq shakllarining deyarli barcha jihatlarida buzilish, noo'rin so'z qo'llash holatlari uchrab turibdi. Jumladan, reklama, ish yo'riqnomalari, kundalik hayot va kasbdoshlar muloqoti, OAV matnlari va h.k.larda ishlatiladigan chet so'zlarni asosiy ustuvor xatoliklar sifatida ko'rsata olamiz. Respublikamiz hududida o'zbek tiliga xavf soladigan asosiy muammolar qatoriga nutqdagi jargon ifodalar, hamda og'zaki tajovuz (invektiv) kabilarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, aholi nutqiy madaniyati va savodxonlik darajasining pasayganligi, maktablarda ona tili fani o'qitilishining yomonlashuvi hamda o'zbek tilini o'rgatishga ajratilgan dars soatlarining qisqartirilishi kabilarni ham salbiy omillar qatoriga kiritishimiz o'rinlidir. Aytib o'tilgan jarayonlar ma'naviy madaniyat va mamlakatning intellektual salohiyatiga katta zarbadir. Kezi kelganda, til xavfsizligini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, milliy xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashish zarurligini ta'kidlash darkor. O'zbek tilshunosligi fanida oxirgi o'n yillikda har bir sanab o'tilgan salbiy omillarga katta e'tibor berilmoqda. Hozirda tilga xos bo'lmagan hodisalar, jargon va slengning barcha turlari, **odobsiz so'z (obstsenli) leksika** har qachongidan ham faol o'rganilmoqda. Bu sohada ko'plab monografik ishlar qilingan. Adabiy til va substandartning bir-

1. <http://behzodfazliddin.uz/til-tadqiqi/>

2. <http://zarnews.uz/>

3. Воҳидов Э. Сўз петофати. O'zbekiston.: Toshkent. 2014.

biriga ta'sir ko'rsatishi, bir-birini to'ldirishi yaratilgan ishlanmalarning natijasi hisoblanadi. Adabiy til va substandart zamonaviy matnlarda (ayniqsa, OAVlarda) o'zaro tinch yo'l bilan hech qanday munozarasiz birlashadi. "Substandart beqarorlik (destabilizatsiya) ibtidosi sifatida til tizimini harakatsiz (gomeostaz) sifatida qo'llash uchun zarur", - deb ta'kidlaydi T.A.Kudinova. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning uzviy davomi bo'lgan yana bir omil haqida to'xtalsak. O'zlashma so'zlar va jargonlar adabiy tilning azaliy so'zlarini siqib chiqarmoqda. Vaholanki, ular katta lingvokulturologik salohiyatga ega etnik tasavvurlarni beradi. Bunday so'zlar arxaiklashadi va tilning tashqi qarama-qarshiligi (**periferiya**)ga o'tadi. Bu jarayondagi muammo ularni (eskirgan so'zlar) butunlay yo'qolib ketishiga yo'l qo'yimaslik zarur. Arxaika – tilning mavqeyini oshirish, "til ozodligi"ni tiklashda o'zining ta'sirchan usullaridan foydalanadi. Aynan shuning uchun ham arxaik leksikaga insonni umummadaniy tajriba saqlovchisi deb hisoblaydigan mualliflar murojaat qiladilar. Arxaik jarayonning tahliliy tushunchasi (**kontsept**) millat lingvomadaniyatidagi ahamiyati o'zgarganligini aniqlashga imkon beradi. Periferiyaga eskirmaydigan, eskirishi mumkin bo'lmagan axloqiy tasavvurlar tizimi bilan bog'liq so'zlar ketib qoladi. Biroq hozirgi sharoitlarda leksik birliklar nafaol leksika ("potensial" so'zlar) sohasida o'tadi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi, "mozaik" madaniyatning ustuvorligi bilan uzviy bog'liq. "Mozaik madaniyat"<sup>1</sup> tushunchasini fransiyalik ruhshunos A.Mol (1973) kiritgan. Uning yuzaga kelishi atrofdagi olamni odam tasodif qonunlaridan kelib chiqib bilib oladi, degan narsani aniqlaydi: odam bilimlarni atrofdagi voqelikdan, gazetalardan va boshqa omillardan o'rganadi. Odam axborotning muayyan miqdorini to'plaganda, unda yashiringan strukturalarni payqab oladi. A.Mol bu madaniyatni "mozaik madaniyat" deb ataydi, nega deganda, bu madaniyat yirik sonli qismlardan hosil bo'ladi. "Mozaik" madaniyatda bilimlarni ta'lim tizimi emas, ommaviy axborot vositalari shakllantiradi. Tegishli ravishda diniy, ilmiy va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq butun bir qatlamlar faol qo'llanishdan uzilib qolgan. Ommaviy tarzda foydalanish nuqtayi nazaridan dolzarb bo'lmagan bunday arxaizmlar tilda so'zlashuvchilarning faqat eng savodxon (ya'ni yuqori bilimli) vakillari ongida tirik qoladi. Agarda jamiyatda bunday so'zlarni biidigan va qadrlaydigan odamlar doirasi kichrayssa, ularning (ya'ni bunday so'zlarning) jonli leksik zaxiradan passiv lug'at sohasiga o'tishi ro'y beradi. Biroq hozirgi zamon so'z ustalarining sa'y-harakatlari bilan bu leksikalar yana "ongimizning yorqin maydoni"ga qaytishi mumkin. XX asrda o'zbek tilining faol leksik zaxirasidan dolzarb denotativ mazmun-mundarijaga ega ayrim leksik birliklar "g'oyib" bo'lgan. Shu vaqtda ular zamonaviy sinonimlar bilan almashtirilmagan. Bu jarayon sezilarli darajada o'zbek tilining qashshoqlashishiga sabab bo'ldi. Natijada, lug'at zaxirasi ancha qisqargan. Bu eskirgan so'zlarni so'zlashuvchilarning faqat ayrim qismlarigagina ma'lum ekanligi, bu leksikaning **agnonimlar** kategoriyasi bilan "qo'shni" ekanligi haqida gapirishga imkon beradi. "Agnonim" qadimgi yunon tilidan olingan so'z bo'lib, "emas", "balki" degan ma'nolarda keladi. Ona tili uchun noma'lum, tushunarsiz bo'lgan tilning leksik yoki frazeologik birligi. Ko'pgina agnonimlar sheva, maxsus terminlar yoki eskirgan so'z (arxaizm)lar tarkibida uchraydi. Agnonimlar salbiy hodisa hisoblanadi. Ular soflikka zid bo'lib, soflik esa yaxshi nutqning eng muhim sifati hisoblanadi. "Qorong'i, ya'ni, noaniq so'zlar ishlatish tilning rang-barang, yorqin va ifodali leksik gazlamasidagi dog'lar kabi yoqimsizdir. Ular matnlarni buzadi, fikrlashni qiyinlashtiradi, gapirayotganlar va o'qiyotganlarning soxta g'oyalar va xulosalar chiqarishlariga olib keladi"<sup>2</sup>. Eng muhimi, tilda so'zlashuvchilar ko'z oldida so'zlarning eskirishi sababli jamiyatda til boyligini saqlash g'oyasining shakllana boshlanishi muqarrar bo'lib bormoqda. "Rus tili asabiy barbodlik yoqasida"<sup>3</sup> ("Русский язык на грани нервного срыва") kitobida "So'z qutqaruvchilari" deb nomlangan bob bo'lib, unda

<sup>1</sup>. Моль А. Социодинамика культуры: пер. с фр. — М.: Прогресс, 1973, —290 с.

<sup>2</sup>. Чернышев В.И. Разыскания и замечания о некоторых русских выражениях // Чернышев В.И. Избранные труды. — М.: Наука, 1970. — Т. 1. —С. 301—341.

<sup>3</sup>. Кронгауз М.А. Русский язык на грани нервного срыва. — М.: Языки славянских культур, 2008. — 229 с.

muallif Bernar Pivo haqida, uning fransuz tilidan yo'qolib ketayotgan so'zlarni "izma-iz borib topish" bilan bog'liq tajribasi haqida hikoya qilinadi. Hozirgi zamon lingvomadaniy vaziyatning alohida "og'riqli nuqtasi" – bu, stilistik palitrada "yuksak registr"ning yo'qligi. Bunday holat boshdan oyoq ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan, ya'ni butun O'zbekiston hayotining ijtimoiy-iqtisodiy tarzi o'zgarganligi bilan bog'liqdir. Bugun balandparvoz til vositalariga talab qolmadi. Ammo o'rganilayotgan sohada boy berilgan "yuksak registr" (bosib chiqarilgan) o'rnini bosadigan hozircha hech narsa yaratilgani yo'q, muloqotda faqat kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlarni, oddiy, siyqasi chiqqan so'zlarnigina ishlatish esa millatning ma'naviy salomatligiga xavf soladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zga tillardan so'z kirib kelishi butkul salbiy holat ham emas, aslida. O'z davrida Navoiy ham o'zga tillar so'zlaridan foydalangan. Qolaversa, rus so'zlarini adabiy tilga birinchi bo'lib olib kirgan ijodkor Zavqiy bo'ladi. Rus tili haqida so'z borar ekan, aytish lozimki, u bugungi o'zbek tiliga ta'sir ko'rsatayotgani uchun aybdor emas va bu holat faqat o'zbek tili bilangina yuz berayotgani yo'q. Bir vaqtning o'zida bugun rus tilshunoslari ham o'z tillarini chetdan kirib kelgan so'zlar, yangidan paydo bo'layotgan jargon(slang)lardan tozalolmay sarson. Bugungi kunda tilshunosligimizning deyarli barcha sathlarida buzilish, noo'rin so'z qo'llash holatlari uchrab turibdi. Respublikamiz hududida o'zbek tiliga xavf soladigan asosiy muammolar sifatida nutqdagi jargon ifodalar hamda aholi nutqiy madaniyati va savodxonlik darajasining pasayganligi, maktablarda ona tili fani o'qitilishining yomonlashuvi kabilarni ham salbiy omillar qatoriga kiritishimiz o'rinlidir. Aytib o'tilgan jarayonlar ma'naviy madaniyat va mamlakatning intellektual salohiyatiga katta zarbadir. Kezi kelganda, til xavfsizligini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish milliy til xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish zarurligini ta'kidlash lozim.

#### **MUNAQQID ILMY MEROSI VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK**

**Shukurova G. - O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyotshunoslarning akademik M.Qo'shjonov haqidagi kuzatishlari asosida olim ilmiy-ijodiy merosi va uslubiy o'ziga xoslik masalalari o'rganiladi. O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan atoqli olim, akademik Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy ijodidagi asosiy masalalarga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyotshunoslik, xarakter, syujet, kompozitsiya, konflikt, til, uslub, metod, mahorat.

#### **НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ КРИТИКА**

**Шукурова Г. - соискатель Института узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан**

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы научно-творческого наследия и методической самобытности ученого на основе наблюдений литературоведов об академике М. Кушжанове. Обсуждаются основные вопросы научной деятельности известного ученого академика Матёкуба Кушжанова, внесшего значительный вклад в развитие узбекской литературы, литературоведения и литературной критики.

**Ключевые слова:** литературоведение, характер, сюжет, композиция, конфликт, язык, стиль, метод, мастерство.



|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Nishonov T.S. EHTIMOLLAR NAZARIYASINING BOSHLANG'ICH TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI .....                                        | 128 |
| Normatova M., Tolipova O. TA'LIM TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK TIZIMI ELEMENTLARI .....                                                                 | 131 |
| Sahitov R.M. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPYUTER LINGVODIDAKTIKASINI QO'LLASH ..... | 134 |
| Tangriyev A. SPORT MURABBIYLARINI TAYYORLASH BO'YICHA JAHON TAJRIBASI .....                                                                           | 137 |
| Temurova G. X. O'YIN - ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING NUTQIY QOBILİYATLARINI FAOLLASHTIRISH OMILI SIFATIDA .....                              | 139 |
| Umnov D.G., Umnova M.Q. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BOSHLANG'ICH IQTISODIY BILIMLARINING DIAGNOSTIKASI .....                                       | 143 |
| Umrinxina V.I., Valiyeva A.R. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH XALQARO TADQIQOTLARI .....                     | 148 |
| Xaydarov O.M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASH METODOLOGIYASINING DIDAKTIK TAMOIYILLARI .....                                        | 154 |
| Yulchiboyeva D.E. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PSIXOLOGO-PEDAGOGIK BILIMLARINI INTEGRATSIYA JARAYONI .....                                              | 157 |
| Qodirova B. T. – BADIY ASARLAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA TARIXIY ONGNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI .....                         | 161 |
| Abdullayev N., Begmatova D. FIZIKA PRAKTIKUMIDA ZAMONAVIY TIZIMLI METODLARNI QO'LLASH USULLARI .....                                                  | 167 |
| Rahimova G. O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIGA AXBOROT VOSITALARINING MOTIVATSION TA'SIRI .....                                                 | 169 |
| Abubakirova Sh.U. IJTIMOYIY FAOL O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI .....                                                | 172 |
| Ergasheva S.T. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                     | 175 |
| Eshmurodova D.N. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KASBIY REFLEKSIYANING O'RNI .....                                        | 179 |
| Parpiyeva M.B. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA TENGLAMALAR MAVZUSINI FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA O'QITISH .....                          | 182 |
| Sayfullayeva I.Q. ESHITISHDA NUQSONI BOR 1-2 SINFLAR O'QUVCHILARINING ARIFMETIK AMALLARNI BAJARISHGA O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI .....            | 184 |
| <b>TARIX</b>                                                                                                                                          |     |
| Ismatullayev F.O. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BUYUK BRITANIYA QIROLLIGI BILAN HAMKORLIGI ...                                                         | 189 |
| Yakobjanov J.J. QO'QON XONLIGI IQTISODIY HAYOTINING MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTLARIDA YORITILISHI .....                                                | 192 |
| <b>FILOLOGIYA</b>                                                                                                                                     |     |
| Burxonova F.A. YOZUVCHI IJODIDA BADIYIY IDROK VA TANQIDIY TAFAKKUR SINTEZI .....                                                                      |     |
| Zarnasov Sh.Sh., Rahmonqulov B.N. O'ZBEK TILIDA SODDALANISH HODISASI VA UNING OMILLARI .....                                                          | 196 |
| Qo'ldashev N.A. LINGVOEKOLOGIYA: TIL VA NUTQ SOFLIGINING NAZARIY MASALALARI .....                                                                     | 201 |
| Shukurova G. MUNAQQID ILMIY MEROSI VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK .....                                                                                     | 207 |
| <b>PSIXOLOGIYA</b>                                                                                                                                    |     |
| Ayrapetova A.G. KIBERADDIKSIYA O'SPIRINLAR FAOLIYATINI O'ZGARTIRUVCHI OMIL HAMDA ULARNI DESTRUCTIV MUHITGA JALB QILISH ASOSI SIFATIDA .....           |     |
| Boymirzaeva D.D. TALABALARDA FRUSTRATSIYA HOLATINING NAMOYON BO'LIHIDA PSIXOLOGIK HIMOYANING XUSUSIYATLARI .....                                      | 218 |
| Aliyeva G. PSIXOLOGIK TA'LIM TURLARI VA TASHKIL ETISH SHARTLARI .....                                                                                 | 225 |
| <b>ANIQ FANLAR</b>                                                                                                                                    |     |
| Axmedov M., Qodirov R. UCHINCHI TARTIBLI QO'SHMA TIPDAGI NOSTATSIONAR TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALA .....                                          | 227 |
|                                                                                                                                                       | 230 |

